



O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

*XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN
ANJUMAN MATERIALLARI*



2024-yil 16-aprel

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI

XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI

2024-yil 16-aprel

Toshkent – 2024

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

G.Norimova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,

O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

KO'P TILLILIK VA KO'P MADANIYATLILIK MUHITIDA O'ZBEK TILINI O'RGATISH MASALALARIGA DOIR

Saodat Muhamedova¹
Yekaterina Shirinova²

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalari, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar, multilingual muhitda o'zbek tilini samarali o'qitishga xizmat qiladigan metod va yondashuvlar tahlil qilinadi, bu borada takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: *o'zbek tili, ko'p tillilik, ko'p madaniyatlilik, intertil, metod, yondashuv, o'qitish, ta'lim.*

Annotation. In this state, the problems of teaching the Uzbek language in the conditions of multilingualism and multiculturalism, problem situations, driving processes, methods and approaches that serve the effective teaching of the Uzbek language in a multilingual environment are analyzed, as well as a proposal for this problem.

Key words: *Uzbek language, multilingualism, multiculturalism, interlanguage, method, approach, teaching, education.*

Kishilik jamiyatida turli til va madaniyat sohiblari o'zaro aralash tarzda: yonma-yon, qo'ni-qo'shni bo'lib hayot kechiradilar. Shu bois ham bir hududda yashovchi turli etnoslarga mansub insonlarning tili va madaniyati o'zaro ta'sirlashadi, bir-biriga singadi, bir-biridan elementlarni o'zlashtiradi. Ma'lumki, madaniyat – insoniyat libosi, muayyan shaxs yoki jamiyatning yashash tarzi, axloq me'yorlari, dunyoqarashi, urf-odatlar, an'analar, olamni anglash darchasi va o'zligini ifodalash yo'sini. Madaniyat – bu me'yorlar majmuasi, ya'ni nima ruxsat berilgani va nima taqiqlangani. Bu me'yorlar muayyan jamiyat tomonidan taqsimlanadi, ular insonlar tomonidan o'zlashtiriladi, inson esa uning bir qismiga aylanadi [4, 84]. Bitta muhitda yashovchi turli madaniyat vakillarining madaniy me'yorlari aralashuvi ta'lim jarayonida faol kuzatilishi mumkin.

Tillar davlat tili sifatida va xorijiy til sifatida o'qitiladi. Har ikkala vaziyatda ham mazkur tilni o'rganuvchilar jamoasi shu til va madaniyat sohiblaridan tarkib topishi yoki bunday jamoada ko'p tillilar va ko'p madaniyatlilar jamlangan bo'lishi mumkin.

¹ Saodat Muhamedova – *ToshDO'TAU O'zbek tili ta'limi fakulteti dekani, f.f.d., professor*

² Yekaterina Shirinova – *ToshDO'TAU O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi kafedrasida dotsenti v.b., PhD*

Iqtibos uchun: *Muhamedova, S. Shirinova, Y. (2024) Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 3–6 b.*

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/IYDL4924

Ko'p millat va elatli mamlakat sifatida O'zbekistonda ham o'zbek tili ham ona tili, ham davlat tili, ham xorijiy til sifatida o'qitiladi. Ayni vaqtda o'zbek tilini xorijiy til sifatida xorijliklarga o'qitish masalalari kun tartibidagi eng dolzarb masalalardan biriga aylangan [1, 2].

Albatta, o'zbek tili davlat tili maqomiga, ellik milliondan ortiq so'zlashuvchilarga ega bo'lgan va yo'qolib ketish xavfidan ancha yiroq toifadagi til bo'lishiga qaramasdan, uning muntazam rivojlanib borishini ta'minlash, o'zbek xalqi milliy madaniyatini aks ettiruvchi ko'zgu sifatidagi nufuzi va maqomini oshirish borasida samarali faoliyat olib borilmoqa. Mamlakatimizning turistik jozibasi, boy tarixi hamda iqtisodiy o'sish imkoniyatini bera oladigan boy tabiiy resurlari ko'plab xorijliklarning o'zbek tili va madaniyatini o'rganishga nisbatan qiziqishini oshirib bormoqda.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilar guruhida turli til va madaniyat vakillari jamlangan holatda til o'rgatish jarayonini samarali tashkil etish yanada murakkablashadi. Chunki, odatda xorijiy tilni o'rganishda muayyan til o'rtada vositachi til (intertil) sifatida ishtirok etadi. Biroq guruh a'zolari mutlaqo turli til va madaniyat sohiblari bo'lganida vositachi tilni tanlash masalasi qo'ndalang qo'yiladi. Tasavvur qiling: 6 nafar a'zodan tashkil topgan til o'rganuvchilar guruhining 3 nafari xitoy, 2 nafari fransuz, 1 nafari rus millatiga mansub, qolaversa, ularning hech biri umumiy bir tilni (masalan, ingliz tilini) bilishmaydi. Tabiiyki, til o'rgatuvchi ustoz mazkur tillarning hammasini bilishi ehtimoldan ancha yiroq, bilgan taqdirida ham tinglovchilarning har biriga individual ravishda mavzuni o'z tilida 3 marta takror tushuntirishi og'irlik qiladi. Shunga qaramasdan bunday multilingv ustoz muammoli vaziyatdan nisbatan oson chiqib ketadi. Ammo aksariyat ustozlar til o'rganuvchilarning ona tilini yoki yaxshi biladigan biror tilini bilmasligi mumkin. Bunday vaziyatda umumiy bitta vositachi til (intertil) mavjud bo'lmaydi va bu holat til o'rganuvchilar uchun ham, til o'rgatuvchi ustoz uchun ham psixologik va pedagogik noqulayliklarni yuzaga keltiradi.

O'zga til vakillariga til o'rgatishga mo'ljallangan qo'llanmalarni yirik ikki toifaga ajratish mumkin:

1. Til o'rgatish jarayonini muayyan jahon tili vositasida amalga oshirishga mo'ljallangan qo'llanmalar.

2. Vositachi tilga tayanmasdan, o'rganilayotgan tilning o'zi orqali til o'rgatishga mo'ljallangan qo'llanmalar.

Birinchi toifadagi qo'llanmalar til o'rgatish jarayonini biroz osonlashtiradi, biroq mazkur qo'llanmalardan foydalanuvchilar auditoriyasini (ko'lamini) toraytiradi. Ya'ni qo'llanmada vositachi til sifatida berilgan tilni biladiganlarga undan foydalana oladi.

Ikkinchi toifadagi qo'llanmalardan foydalanish til o'qitish jarayonida biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin, biroq bunday adabiyot yordamida har qanday til sohibi o'zi tanlagan tilni o'rganishi mumkin bo'ladi. Jahon til o'rgatish

va o'qitish amaliyotida har ikkala toifadagi qo'llanmalardan keng miqyosda foydalaniladi.

X.Kadirovaning ta'kidlashicha, o'zbek tilini o'qitish ikki xil yondashuv yordamida amalga oshiriladi: o'zbek tilini til muhitiga kirish imkoni bo'lgan xorijiy til guruhlarida o'qitish va o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish [3, 57].

Bundan tashqari tilshunos-metodistlar tomonidan til ta'limini amalga oshirishning turli yo'llari ham taklif qilinadi:

1. Tilni grammatik qonuniyatlar asosida, formulalashtirib o'qitish.
2. Tilni grammatik qoidalarsiz, tabiiy muloqot, audio tinglash, video tomosha qilish va hokazolar asosida o'rganish.

Albatta, har ikkala usulning afzalliklari va ma'lum kemptik jihatlari bo'lishi mumkinligini qayd qilgan holda, shuni aytish joizki, til qonuniyatlarga tayanuvchi, muayyan qoliplarga ega sistema bo'lgani bois uni muhim grammatik qoidalarga asoslanib, tabiiy muloqot muhitida tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish, so'zlash kabi nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirgan holda o'qitish va o'rgatish lozim.

Bizga ma'lumki, ikkinchi bir tilni o'rganish jarayoni bola nutqi ontogeneziga juda o'xshash bo'ladi va u tilni tabiiy muhitdan o'zlashtiradi. Chunki bola ongida solishtirib, qoidalashtirib o'rganish uchun muayyan til zahirasi mavjud emas. Natijada, bolada bundan boshqacha yo'l bilan til o'rganish imkoniyati yo'q. Bugungi kunda juda ko'p tilshunos-metodistlar mana shu dalilga tayanib, o'zga tilni ham aynan shu tarzda, ya'ni bola ona tilini o'zlashtirgani kabi o'rganish lozimligini qayd qilib o'tadilar va shu strategiyaga asoslanuvchi darslik va qo'llanmalarni yaratmoqdalar. Albatta, bunday yondashuv ham o'zining ijobiy samarasini berayotganini inkor etmagan holda, shuni ham qayd qilib o'tmoqchimizki, katta insonlar ongida tilni ilk bora o'zlashtirayotgan boladan farqli o'laroq, muayyan til (yoki tillar) zahirasi shakllangan bo'lib, solishtirib, qiyoslab o'rganish malakalari ham rivojlangandir. Bolalar o'zidagi bor imkoniyatga tayanib, ona tilini o'zlashtiradilar. Xo'sh, katta insonlar ham o'zidagi bor imkoniyatlardan (bolalarda hali mavjud bo'lmagan inkoniyatlaridan) nega foydalanmasliklari kerak? Bola tilni tabiiy o'zlashtiradi, katta inson esa har qanday metodika asosida bo'lsa ham, yangi bir tilni o'rganayotganini anglab turadi. Demak, katta insonlarda til o'rganish, o'zlashtirish jarayoni parallel kechadi va, bizningcha, bunda o'z ona tili hamda o'rganilayotgan tilni o'zaro qiyoslab o'rganish imkonini taqdim qiluvchi grammatikaga asoslangan (formulashtirilgan) metodikadan ham samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida yuqorida o'zga til vakillariga xorijiy tilni o'rgatish yuzasidan qo'llanuvchi usul va yondashuvlarni samarali integratsiyalash ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Qolaversa, eng muhimi, til o'rganayotganda insonda kuchli ehtiyoj bo'lganida uning miyasida sodir bo'ladigan faollikdan foydalanish lozim. Ya'ni, til o'rgatish darslarida turli til va madaniyat vakillariga o'zaro juftlikda bajariladigan vazifalarni berish orqali ularda bir jamoa bo'lib, bir-birini tushunib olish zaruratini yuzaga keltirish kerak.

Avvaliga bu ancha qiyin bo'lishi mumkin, ammo bu qiyinchiliklarni yengib o'tishga noverbal kommunikatsiya elementlari, Internet tarmog'i onlayn tarjimonlari, lug'atlari, vizual vositalar yordamga keladi va ijobiy natija muloqotga kirishish zarurati hisobiga qo'lga kiritilishi mumkin. Albatta, bunday metod A2 darajada qisman, B1 va undan yuqori darajalarda esa takomillashgan holda foydalanilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til o'rganish jarayoni kuchli ehtiyojni, samarali o'rgatish usul va yondashuvlarini, tinimsiz say'i-harakatni taqozo etadigan murakkab jarayon bo'lib, bu holat muayyan tilni o'rganuvchilardan ham, o'rgatuvchilardan ham kuchli salohiyat va mas'uliyatni talab etadi.

ADABIYOT:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni// [PF-6084-сон 20.10.2020. Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida \(lex.uz\)](#)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori// [PQ-19-сон 12.01.2024. Xorijiy davlatlarda O'zbekiston tarixi va madaniyati, o'zbek tili va adabiyotini o'rganishni keng targ'ib qilish orqali turistlar oqimini ko'paytirish hamda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida \(lex.uz\)](#)

Кадирова, Х. (2024). ДВА РЕЖИМА ПРОЦЕССА ОБУЧЕНИЯ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ В ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ. *Uzbekistan Language and Culture*, 5(2). Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/82>

Shirinova, Y., Iskandarova, G. (2024). Inson - madaniyatlar chorrahasida. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 83-89. DOI: 10.52773/tsuull.uzlc.aphil.2023.2.5/NQUG6205// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/79>

Shirinova, Y. T. (2022). MADANIYATLARARO KOMMUNIKATSIYA XUSUSIDA. *INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY*, 1(1), 17-24. Retrieved from <https://openidea.uz/index.php/conf/article/view/604>

MUNDARIJA:

1	Muhamedova S. Shirinova Y. Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	Kadirova X.B. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	Iskandarova G.T. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	Musulmanova N. Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	Isayeva Sh. Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	Do'smuradova Y. Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	Turakulova O.A. O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	Məmmədov X. Kadirova X. X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	Elova D.Q. O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	Abdulahimova O. O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	Xo'jayev N. O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	Aytniyazova N. O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	Nasirdinova O. Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	Khidoyatova D.A. Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	Davronov A.S. O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	Аликулова М. Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	Bazarova D.B. Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	Yo'ldosheva Y.A. Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	Beysenova A. Kadirova X. Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	Pardayeva M.Ch. Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	Shodmanov T.A. O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	Abduqodirova N. Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112